

NEMIS XALQ MAQOLLARINING O'ZBEK TILIGA TARJIMALARI  
MUAMMOLARI

**Aslonova Munisa Mirg'olibovna**

*1-kurs magistranti*

*O'zbekiston Davlat Jahon tillari Universiteti*

*Toshkent shahri*

**Hurram Rahimov**

*f.f.d., professor*

*O'zbekiston Davlat Jahon tillari Universiteti*

*Toshkent shahri*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Nemis xalq maqollarining o'zbek tiliga tarjimalari, ekvivalentlari va maqollarga berilgan ta'riflar xususida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *maqol, leksik, stilistik, atama, ko'chma ma'no, alliteratsiya.*

**Abstract:** *this article covers translations of German folk Proverbs into Uzbek, equivalents and definitions of Proverbs.*

**Keywords:** *proverb, lexical, stylistic, adjective, portable meaning, alliteration.*

Maqollar tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi va turli nomlar bilan – maqol, matal, masal, hikmatli so'z, naql, donolar hikmati, mashoyixlar, donishmandlar so'zi, otalar so'zi, bobolar naqli, qayroqi so'zlar, hikmatlar guldastasi deb atalgan. Maqol va matallar tilning emotsional obrazli manbalari hisoblanadi. Ya'ni, maqollar xalqning pand - nasihati, ma'naviy, axloqiy xulosasi, xalq milliy ruhining aksidir. Maqol juda chuqur ijtimoiy mazmunga ega. Shuning uchun ba'zi maqollar butun bir asarning mazmunini yoritib turishi mumkin. Maqollar qisqa shaklda keng mazmunni ochib beradilar. Bunday qisqalikka gapning ayrim bo'laklarini ishlatmaslik natijasida erishiladi. Masalan, “Aller Anfang ist schwer”-“Ko'z qo'rqoq, qo'l botir”, “Besser spät als nie”-“Hechdan ko'ra kech yaxshi“, “Einigkeit macht stark” -“Kuch - birlikda“,“Erst bedacht, dann gemacht”-“Avval o'yla ,keyin so'yla“, “Es ist nicht alles Gold, was glänzt ”-“Yarqiragan narsaning hammasi ham oltin bo'lavermaydi”. Maqollarning muhim tomoni ularni oddiy fikr - mulohazalardan ajratib turuvchi narsa, ularning semantikasidir, ya'ni bunda ikki ma'noning to'qnashuvi, chatishuvini kuzatish mumkin, asl ma'no hamda ko'chma ma'no. Masalan, “Puch yong'oq bilan qo'yningni to'ldirma”, “Ikki oyog'ini bir etikka tiqmoq”. Maqollarning tuzilishida alliteratsiyaning

ahamiyati kattadir. “Tomdan tarasha tushganday». Maqol va matallarda stilistik usullardan takror va parallelizmning ham ta'sir kuchi katta. Masalan, o'zbek tilida “Yaxshi so'z - jon ozig'i, yomon so'z - bosh qozig'i”. “Qor yog'di - don yog'di” kabi maqollar shular jumlasidandir. Bu nemis tilida shunday aks ettiriladi. “Einem geschenken Gaul sieht man nicht ins Maul”, “Fleiß erwirbt, Faulheit verdirbt“, “ L.Boboxonova fikriga ko'ra, sententsiyaning maqoldan farqi, uni odatda ma'lum shaxsga tegishli bo'ladi xolos.Bundan tashqari, sententsiya adabiy, kitobiy xususiyatga ega. Maqol singari ularda nasihatgo'ylik, obrazlilik, ixchamlik, umumlashtiruvchilik mavjud bo'lib matnda erkinligini saqlaydi va matndan tashqi holatda ham o'zining bir butunligini, yaxlitligini yo'qotmaydi. “Dunyoda tilsiz xalq bo'lmaganidek, maqolsiz til ham yo'q”, - deb ko'rsatadi tatar yozuvchisi Noqiy Esanbat .Xalq ijodiyotining o'ziga xos janri og'zaki nutqda ham, yozma adabiyotda ham turli atamalar bilan nomlanadi: maqol, matal, naql, masal, hikmatli so'zlar, aforizmlar, ota-bobolar so'zi, donolar so'zi va h.k. Maqol – Sprichwort, matal – sprichwörtliche Redensart, masal – die Fabel, hikmatli so'zlar, aforizmlar, ota-bobolar so'zi, donolar so'zi – geflügelte Worte –крылатые слова. Maqol atamasini tilshunoslar turli adabiyotlarda turlicha talqin etadilar. O.S.Axmonova, maqolni “badiiy tugallangan hikmatli so'z, kinoyal fikrga odatda qofiyador ohang hamda fonetik shaklga egadir” deb ta'riflaydi.Uning fikrlariga qo'shilgan R.Konradesa maqolni “Hayotiy tajribalarga asoslangan qisqa, aniq va xalq og'zaki ijodiga asosan paydo bo'lgan” deb ta'riflaydi.

Har narsaning tarixi bo'lgani kabi maqol va matallar o'z kelib chiqish tarixiga ega. Nemis olimi F.Zayler nemis tilida maqolning kelib chiqish tarixini o'rgangan. U o'zining keng hajmdagi asari bo'lmish “ Nemischa maqol ta'limoti “ ni frazeologiya muammolariga bag'ishlaydi.U maqol so'zining kelib chiqishi haqida shunday yozadi.” Maqol o'rta nemis tilidan ham “ Sprichwort” bo'lgan va u “ men gapiraman”ma'nosini anglatgan. Har bir maqol haqiqiy xalq so'zi bo'lishi kerak.” Ko'pgina maqollar yagona makonda xalq qatlamlarida xalqchil bo'lib, keyinchalik tez tez shevalarda ko'rina boshlaganlar.”

Maqollar tuzilishiga qarab gap shaklini yoki me'yoriy shaklini olishi mumkin. Ularning strukturalari turli xil bo'ladi.T.Shippen bu haqda shunday deydi.” Biz maqollarni leksik birlik sifatida kuzatmaymiz. Maqollar hayot tajribalari hamda hayot qoidalarini o'gitli fikr orqali ko'pincha ochib beradigan qisqa hikmatli so'zlardir.Maqol shaki har doim bitta gapdir, unung ma'nosi esa butun bir fikrdir.

Maqollar gap shaklini olganda ba'zan bu yerda gapning biron grammatik bo'lagi tushib qoladi.(Masalan: Kleine Ursachen, große Wirkungen- Uchqundan alanga hosil bo'lar)bunday hollarda iboralar faqat yakka so'zlarning bir –biri bilan birikishidan tashkil topadi. Shuning uchun gaplar ham “lozim” (man soll),” kerak”( man muss), mumkin (man kann) so'zlari bilan ishlatiladi: Masalan: Man soll das Eisen schmieden, solange es heiß ist- Temirni qizig'ida bos. Man kann nicht alles über einen Kamm scheren- Besh qo'l barobar emas.

Maqol atamasi arabcha – “qavlun - gapirmoq, aytmoq” so'zidan olingan bo'lib, aytilib yuriladigan ifoda va iboralarga nisbatan qo'llaniladi. Barcha tomonidan deyarli bir xilda aytilib, bir xilda tushuniladigan ibora,ifodalar,asosan, maqol janrini tashkil qiladi.

Demak, xalq maqollari ommaning muayyan voqea, hodisalar haqidagi xulosalarini, hukm va tavsiyalarini o'zida mukammal tarzda mujassamlashtirgan o'ziga xos badiiy shaklga ega bo'lgan ifoda va iboralardan iboratdir.

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent Sh. Imyaminova va tadqiqotchi Sh.Kamolova o'zlarining **“Nemischa o'zbekcha maqol va matallar lug'ati”** kitobiga so'zboshi sifatida keltirgan “Maqol xalq ijodiga yo'g'irilgan kichik asardir” maqolalarida ba'zi barcha xalqlar ijodida uchraydigan bir xil shakl va mazmundagi maqollarning tarixi, ilk bor uchragan asar va muallifini keltirib o'tadilar. Masalan:

“Vaqt - bu pul”. Bu gapni birinchi marta amerikalik olim va siyosat arbobi Benyamin Franklin (1706-1790) o'zining “Yosh savdogarga maslahat” asarida aytgan. Franklinning bu gapi ishbilarmonlar, bankir va savdogarlarning shioriga aylanib qolgan.

“Omad kuchlilarga kulib boqadi”- Bu maqolning muallifi ingliz yozuvchisi va dramaturgi Oskar Uayld (1854-1900)dir.

Maqollar hayotdagi barcha vaziyatlar uchun donolikdir.Nemis tili maqollarning katta xazinasiga ega. Biz bu hikmatlardan har kuni foydalanamiz, ko'pincha ular qayerdan kelganini bilmasdan. Quyida biz ba'zi nemischa maqollar, ularning mazmuni va kelib chiqish tarixiga to'xtalib o'tamiz.

“*Wer rastet, der rostet*“.Bu maqolni so'zma so'z tarjimasida „ Kim harakat qilmasa, u zanglaydi“ ma'nosiga to'g'ri keladi.O'zbek tilida esa „*Yurgan daryo, o'tirgan bo'yra*“, „*Sahar tursang, rizqli bo'lasan*“maqollariga to'g'ri keladi.Qadimgi ritsarlar ham juda oz harakat qilganda zanglay boshlaganmi yoki yo'qmi, hujjatlarda qayd etilmagan. Maqol nemis tilida 1830 yilda-sanoatlashtirish boshida paydo bo'lgan. Va bugungi kunda bu maqol aniq

jismoniy va ruhiy harakatlanishni talab qiladi. Chunki bu - ilmiy jihatdan isbotlangan. Harakat qilish - umrni uzaytiradi.

„Wer den Pfennig nicht ehrt, ist des Talers nicht wert“-„Tiyinni hurmat qilmaydigan kishi taler(qadimgi kumush tanga)ga loyiq emas“. Bugunki kunda buni shunday aytish mumkin:“ Wer den Cent nicht ehrt, ist des Euro nicht wert“. Shiorga ko'ra „ Tinni hurmat qilmagan kishi yevroga arzimaydi“. Hatto Martin Lyuter ham buni 16-asrda tan olgan. Aytishlaricha, u pechka orqasidagi devorga bo'r bilan "Wer den Pfennig nicht achtet, der wird keines Guldens Herr" -"Tinga e'tibor bermagan Gulden (oltin tanga)ning xo'jayini bo'lmaydi" degan so'zni yozgan. Bu maqolni o'zbek tilidagi „Tiyin so'mni asraydi“ maqoliga mos keladi.

### **Xulosa**

Maqollar qaysi xalq yoki millat tomonidan yaratilmasin, u mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, boshqa davlat aholisi ham foydalanishlari mumkin. Ammo maqollarni tarjima qilish tarjimonlari uchun talaygina muammolarni keltirib chiqaradi. Sabab sifatida shuni keltirib o'tish mumkinki, tarjimon o'z sohasidan tashqari tarix, falsafa va boshqa fan sohalaridan ham xabardor b'lishi talab etiladi. Bu haqida G'aybulloh Salomov: "Tarjimonda yozuvchi va tanqidchidan, aktiyor, rassom va olim mehnatidan ham nimadir bor. Bu shundan iboratki, tarjimon so'zshunos bo'lib tahlil qiladi, aktiyor singari boshqalarning (shu o'rinda-muallifning) qiyofasiga kiradi va ayni vaqtda o'zligini saqlaydi....." deya ta'kidlagan edi o'zining "Tarjima tashvishlari" kitobida. Demak maqollarning tarjimasini bilan shug'ullanish ham tarjimondan katta mas'uliyatni va tajribani talab qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Abduazizov A.A. Matn – kognitiv faoliyat mahsuli // Tiltaraqqiyotining qonuniyatlari. – Samarqand: SamDCHTI, 2009. - 23b.
2. Bakieva G.X. Semantika: // Filologiya masalalari. – Toshkent, 2003.- Ne 2. S.5-9.
3. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. (Adabiy normaning tiplari). II qism. –Toshkent: Navro'z, 1998. – 133b.
4. Lexikon sprachwissenschaftlicher Termine [Hrsg. G. Conrad] - 1 Aufl. – Leipzig: Bibliographisches Institut, 1985, S.228. Vol. 27 (2022): Miasto Przyszłości 91 Miasto Prz.
5. Imyaminova Sh. Kamolova Sh. Nemischa-o'zbekcha maqol va matallar lug'atining tuzish prinsiplari.//